

O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ ATVORNING NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Alimova Mohidil Zafar qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU 4-bosqich talabasi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.09.2025

Revised: 18.09.2025

Accepted: 19.09.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Agressivlik,
o'smirlar, ijtimoiy
muhit, stress, oilaviy
muhit, psixologik
xususiyatlar..*

Ushbu maqolada hozirgi kunda o'sib kelayotgan yoshlar orasida, xususan o'smirlarda agressiv xulq-atvorning paydo bo'lishi turli omillar ta'sirida shakllanmoqa. Maqolada O'zbekiston hududida ayniqsa, o'smir qizlar orasida kuzatilayotgan agressiv xulqni keltirib chiqaruvchi psixologik xususiyatlarni tahlil qiladi va bu xulq-atvorning oldini olish yo'llarini ko'rib chiqadi.

Kirish

O'smirlik davri jismoniy va ruhiy o'zgarishlar bilan kechadigan murakkab davr bo'lib, unda ijtimoiy omillar va shaxsiy tajribalar katta rol o'ynaydi. Ushbu davrda o'smirlar xulqida o'zgarishlar sodir bo'lishi va ba'zi hollarda agressivlik namoyon bo'lishi kuzatiladi.

O'smirlarda kuzatiladigan agressiv xulq-atvorni shakllantiruvchi psixologik va ijtimoiy omillar haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xorijiy adabiyotlarda o'smirlar orasidagi agressiv xulq, asosan, oila, maktab muhitlari, ijtimoiy media ta'siri va ruhiy salomatlik omillari bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Masalan, Amerikalik psixolog Anderson va Bushman (2002) o'smirlik davrida shaxslararo munosabatlardagi zo'ravonlik va agressiya darajasiga qaratilgan tadqiqotlarda, ijtimoiy media va televizion kontentning o'smirlarga salbiy ta'sirini aniqlagan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar esa bu mavzuni mahalliy madaniy va ijtimoiy omillar nuqtai nazaridan o'rganib, o'smirlik davridagi o'zgarishlarni oila ichidagi munosabatlar, iqtisodiy muammolar, mahalliy urf-odatlar va qattiq tarbiya uslublari bilan bog'lashgan. Shuningdek, Karimova (2021) o'z tadqiqotida oilada e'tibor yetishmasligi yoki otalarning farzandlari bilan suhbatlashish ko'nikmalarining kamligi ham o'smirlar xulqiga salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Mazkur tadqiqotda so'rovnoma va suhbat usullari qo'llanilgan. So'rovnoma yordamida o'smir qizlarning agressiv xulq atvorining manbalari va haqida ma'lumotlar yig'ilgan. So'rovnoma savollari oila a'zolari bilan munosabat, maktabdagi tengdoshlari bilan muloqot, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, shuningdek, qizlarning ichki hissiyotlari va stress darajasini o'lchashga qaratilgan.

Suhbat metodi esa o'smir uchun chuqurroq muloqot qilish imkoniyatini berdi. Ushbu metod orqali ular o'zlarining ichki his-tuyg'ularini, qiyinchiliklarini ochiq-oydin bayon qilishdi. Suhbatlar jarayonida, shuningdek, ularning oila a'zolari, o'qituvchilari va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlarining ta'siri o'rganildi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi yordamida olingan natijalar o'sib kelayotgan yosh o'smirlar orasida agressiv xulqni shakllantiruvchi asosiy psixologik omillarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tajovuzkorlik muammosiga qiziqishning ortishi va shaxsiy xususiyat sifatida tajovuzkorlik bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilgan. Nima uchun odamlar vaqti vaqti bilan o'zini agressiv tutadi degan savol o'nlab yillar davomida munozara mavzusi bo'lib kelgan. Ayniqsa, oxirgi paytlarda nafaqat kattalar, balki ularning farzandlari ham tajovuzkor bo'lib qolgani e'tiborga molik albatta. Agressiya muammosi bilan mamlakatimizda va xorijda ko'plab tadqiqotchilar shug'ullangan.

Ko'pgina asarlar tajovuzkor xatti-harakatlarning turli xil ko'rinishlariga bag'ishlangan. Eng to'liq tavsifni o'zbek olimlaridan N.G.Kamilova, xorij olimlaridan G.M.Andreeva, K.Battner, D.Richardson, R.Beron, S.V.Enikoplov, V.V.Lorents, T.G.Rumyantseva, A.A.Reana, E.V.Romanina, S.E.Roshchin, E.Fromm asarlarida topish mumkin.

Natija va muhokama. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, o'smirlarda agressiv xulqning paydo bo'lishiga bir qator omillar sabab bo'ladi. Asosiy omillar sifatida quyidagilar keltirildi:

1. Oilaviy muhit va munosabatlar: Oiladagi nizolar, ota onalar o'rtasidagi ziddiyatlar yoki tarbiya usulining qattiq qo'llanishi.

2. Ijtimoiy bosim va tengdoshlar ta'siri: Tengdoshlari orasida raqobat, tashqi ko'rinishga ortiqcha e'tibor.

3. Shaxsiy stress va ichki nizolar: O'smirlik davridagi o'zgarishlar tufayli ichki nizolar va hayotiy qiyinchiliklarga moslashishdagi qiyinchiliklar.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'smirlarda kuzatilayotgan agressiv xulq ijtimoiy va oilaviy muhit bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, oilaviy ziddiyatlar va ijtimoiy bosim ularning xulq-atvorini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. O'smirlik davrida agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi ko'plab psixologik faktorlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu davrda o'smirlar o'zlarining kimligini aniqlashga harakat qiladilar, shuning uchun ular ko'pincha o'z hissiyotlarini boshqarishda qiyinchiliklar sezadilar. Agressivlik, ko'pincha, o'smirning ichki kechinmalarini yoki tashqi muhitdan kelayotgan stressni ifodalash usuli sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

O'smirlik davrida agressiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Hissiy o'zgaruvchanlik: O'smirlar gormonal o'zgarishlar tufayli o'zlarining hissiyotlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu o'zgarishlar ularni tezda g'azablantirishi yoki stressga olib kelishi mumkin.

2. O'z kimligini izlash: O'smirlar o'z kimliklarini shakllantirishga harakat qiladilar, va bu jarayon o'ziga xos tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Ba'zi hollarda, ular o'zlarining "O'zini topish" jarayonida, boshqalarga nisbatan agressiv xulq-atvor ko'rsatishi mumkin.

3. Tashqi bosim va ijtimoiy muhit: O'smirlar ijtimoiy guruhlariga bog'liq bo'lib, o'zlarining o'rni va mavqei haqida xavotirga tushishlari mumkin. Agar ular do'stlari yoki oilaviy muhitda bosimga duch kelsalar, bu agressivlikni keltirib chiqarishi mumkin.

4. Hissiy ifoda qilishdagi qiyinchiliklar: Agressiv xulq-atvor, ko'pincha, o'smirlarning o'z his-tuyg'ularini ifoda etishdagi cheklangan qobiliyatini aks ettiradi. Ular o'zlarini tushunishga harakat qilishadi, lekin ba'zan hissiyotlarini agressiv tarzda chiqaradilar.

5. Psixologik jarayonlar: O'smirlar o'zlarini ko'pincha zaif yoki himoyasiz his qilishlari mumkin, bu esa agresivlikni himoya mexanizmi sifatida qo'llashlariga olib keladi. Agressiv xulq, ba'zan, o'zini boshqarish va boshqalar bilan munosabatda turishdagi noaniqliklardan kelib chiqadi.

6. Stres va tashqi omillar: O'smirlar o'z oilaviy muammolari, o'qishdagi qiyinchiliklar, do'stlar bilan kelishmovchiliklar yoki shaxsiy muammolar tufayli stressni boshdan kechirishi mumkin. Bu stress ularning agressiv xulq-atvorini kuchaytirishi mumkin.

7. Gormonlar va biologik o'zgarishlar: O'smirlik davrida gormonlarning o'zgarishi, ayniqsa, testosteron darajasining oshishi, agresivlikni kuchaytirishi mumkin. Bu biologik omil o'smirning hissiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'smirlik davrida o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunday davrlar bo'ladi, ular da agressiv fe'l-atvor eng yuqori yoki eng past ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. O'g'il bolalarda ikki tipdagi agressiyaning namoyon bo'lishi aniqlangan: 12 yosh va 14-15 yosh. Qizlarda ham ikki tipdagi agressiv xulq-atvorning eng yuqori ko'rsatkichlari 11 va 13 yoshga to'g'ri keladi. O'g'il bolalar uchun agressiyaning to'g'ridan to'g'ri, ochiq shaklda va nizoga kirishayotgan shaxsning o'ziga ko'rsatish xarakterli hisoblanadi. Qizlarga esa aynan verbal agressiyaning turli ko'rinishlarini ma'qul deb bilish xarakterlidir. O'smirlar agressiv xatti-harakatning paydo bo'lishi va namoyon bo'lishida quyidagi asosiy sabablar mavjud:

1. Oilaviy muhitning nosog'lomligi. Oilada ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar, o'zaro bir-birini tushunmaslik holatlari, oiladagi rahbarlik uslubining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va noto'liq bo'lgan oilalarning mavjudligi o'smirlarda agressiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Agressiv xulq-atvor natijasi qotillikkacha olib borishi mumkin. Tadqiqotchilardan biri bo'lgan F.Getting qotillar ko'p hollarda noto'liq bo'lmagan oilalardan chiqqanini aniqlagan. Uning "Oiladagi agressiv bolalarni o'rganish" bo'yicha olib borgan maxsus tadqiqotining natijalariga ko'ra, noto'liq oilalarda o'ta qahrli, qo'pol, agressiv va shu bilan birga voyaga yetmagan jinoyatchilar kelib chiqayotganligini alohida ko'rsatib o'tgan. Uning ta'kidlashicha noto'liq oilalarda ham, noto'liq oilalarda ham sog'lom yoki nosog'lom oilaviy muhit mavjud bo'ladi. Oiladagi doimiy janjallar, mojarolar oilada nosog'lom muhitni vujudga keltiruvchi bosh omillardir. 2. Tengdoshlar guruhi. O'smirlar doim o'zgalarga taqlid qiladilar. Ular tengdoshlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o'zlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar esa o'z tengdoshlari orasida siqib chiqariladi. Bunday bolalar o'zini xo'rlangandek his qilib, o'zi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammo ustiga muammo tug'dirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositalari agressiya kuchayishiga ta'sir qilmoqda. Namoyish etiluvchi jangari filmlar, ko'rsatuvlar, internet orqali o'zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma'lumotlar, jangari o'yinlarni o'ynash agressiyaning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Yuqoridagi sabablarni bartaraf etish maqsadida ota-onalarga va o'smirning yaqinlariga quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- O'smirning mustaqil bo'lishiga, tashabbus ko'rsatishiga sharoit yaratish;
- Ularga nima qilishni buyurmaslik kerak, balki qanday yordam berishni so'rash kerak, ya'ni uni qo'llab-quvvatlashni, unga bo'lgan ishonchni his qilishi;

- O'smir bilan ota-onasi, yaqinlari tez-tez ularning hayotdagi maqsadlari haqida gaplashishi;

- Oilada ota-ona tajovuzkorlik darajasini iloji boricha pasaytirish;

- Ishonchli munosabatlar o'rnatish;

- O'smirning sevimli mashg'ulotlari bo'lsa, uning quvvatini shu tomonga yo'naltirish, uni yutuqlari va mehnatsevarligi uchun doim maqtab rag'batlantirib turish lozim. Agressivlikning oldini olish va uni boshqarish uchun o'smirlar uchun yordam berish zarur. O'smirning agressiv xulqini tushunish va unga empatiya ko'rsatish, shuningdek, to'g'ri kommunikatsiya va hissiy qo'llab-quvvatlash orqali bu o'smirlarda agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi — bu yosh davriga xos bo'lgan psixologik, ijtimoiy va biologik omillar ta'sirida yuzaga keladigan murakkab hodisadir. Quyida ushbu mavzudagi dolzarb ilmiy manbalar asosida asosiy jihatlar keltirilgan:

Psixologik omillar: Krizis davri: O'smirlik — bu bolalikdan kattalik sari o'tish bosqichi bo'lib, L.S. Vigotskiy bu davrni "Psixik rivojlanishdagi krizis" deb atagan. Bu davrda o'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar, lekin hali to'liq mustaqil emasliklari sababli ichki ziddiyatlar va agressiv xatti-harakatlar yuzaga kelishi mumkin.

Shaxsiy xususiyatlar: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning shaxsiy xususiyatlari, masalan, vijdonlilik darajasi, agressiv xulq-atvor bilan bog'liq. Yuqori vijdonlilikka ega o'smirlar kamroq agressiv bo'lishadi, chunki ular o'z xatti-harakatlarini yaxshiroq nazorat qila oladilar. Dushmanona atributsiya xatosi: Ba'zi o'smirlar neytral yoki noaniq vaziyatlarni dushmanona deb talqin qilishadi, bu esa reaktiv agressiyaga olib keladi. Bu hodisa "Dushmanona atributsiya xatosi" deb ataladi.

Oila va tarbiyaning roli; Oilaviy muhit: Oiladagi nizolar, befarqlik yoki haddan tashqari qat'iylik o'smirlarning agressiv xulq-atvorini kuchaytirishi mumkin. Disfunktsional oilalarda tarbiyalangan o'smirlar agressiv xatti-harakatlarga ko'proq moyil bo'lishadi. Tarbiyaning ta'siri: Oilaviy tarbiya uslublari, masalan, haddan tashqari erkinlik yoki cheklovlar, o'smirlarning xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Emotsional ehtiyojlarning qondirilmasligi yoki haddan tashqari qondirilishi ham agressivlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ijtimoiy va madaniy omillar Guruh bosimi: O'smirlar do'stlarining ta'siriga juda sezgir bo'lishadi. Guruhga tegishlilik hissi va unga moslashish istagi ba'zida agressiv xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy muhit: Maktabdagi muhit, o'qituvchilar bilan munosabatlar va ijtimoiy adolat hissi o'smirlarning xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Ijtimoiy adolatsizlik yoki e'tiborsizlik hissi agressiyani kuchaytirishi mumkin. O'smirlarda agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi

ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, bu omillar psixologik, oilaviy va ijtimoiy sohalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu holatni tushunish va unga mos ravishda yondashish, o‘smirlarning sog‘lom rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zohidova, G.(2023). O‘smirlik davrida agressiv xulq va uning sabablari. Psixologiya jurnali
2. Rahimov, A. (2022). Ijtimoiy bosim va o‘smirlar psixologiyasi. O‘zbekiston ijtimoiy fanlar jurnali.
3. Karimova, D. (2021). Oilaviy munosabatlar va o‘smirlar xulqidagi o‘zgarishlar. Pedagog va Psixologiya
4. Avdulova T.P. Agressiv o‘smir: ota-onalar uchun kitob. -M.: “Akademiya” nashriyot markazi 2008. - 128 b. - (Psixolog ota-onalarga).
5. Bandura A. O‘smirlik tajovuzkorligi// - M.: INFRA-M. 2